

**FE'L SEMANTIKASIDA MA'NO KENGAYISHINING KOGNITIV-
MEXANIZMLARI: "NOBIRU" FE'LI MISOLIDA**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20273649>

Umarova Munojot

(O'zDJTU)

Umaraliyeva Oqila

(O'zDJTU)

Annotatsiya

Maqolada "nobiru" fe'lining ko'p ma'nolilik tabiati kognitiv-semantik jihatdan tadqiq etiladi. Unda fe'lning fizik cho'zilish ma'nosi markaziy nuqta sifatida olinib, uning metafora va metonimiya asosida abstrakt sohalarga ko'chishi o'rganiladi. Semantik tuzilmaning radial model yordamida tavsiflanishi fe'l ma'nolari o'rtasidagi tizimli bog'liqlikni ko'rsatadi. Natijalar ko'p ma'nolilikni kognitiv model yordamida tahlil qilishning samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar

ko'p ma'nolilik, semantik rivojlanish, metafora, kognitiv semantika, prototip nazariyasi, radial model.

**COGNITIVE-SEMANTIC ANALYSIS OF SEMANTIC DEVELOPMENT
AND MEANING EXTENSION MECHANISMS IN THE VERB "NOBIRU"**

Umarova Munojot

(UzSWLU)

Umaraliyeva Oqila

(UzSWLU)

Abstract

The article explores the polysemous nature of the Japanese verb "nobiru" from a cognitive-semantic perspective. Taking the prototypical sense of physical extension as the focal point, the study examines its semantic expansion into abstract domains through metaphoric and metonymic mappings. The characterization of the semantic structure using a radial model demonstrates the systemic interconnectedness between the verb's various senses. The findings confirm the effectiveness of cognitive modeling in analyzing linguistic polysemy.

Keywords

polysemy, semantic development, metaphor, cognitive semantics, prototype theory, radial model.

КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ МЕХАНИЗМОВ СЕМАНТИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ И РАСШИРЕНИЯ ЗНАЧЕНИЯ ГЛАГОЛА «НОБИРУ»

Умарова Муножот

(УзГУМЯ)

Умаралиева Акила

(УзГУМЯ)

Аннотация

В статье исследуется природа полисемии японского глагола «nobiru») с позиции когнитивной семантики. В качестве центральной точки рассматривается прототипическое значение физического растяжения, на основе которого изучается процесс переноса значения в абстрактные сферы (время, способности, количество) посредством метафоры и метонимии. Описание семантической структуры с помощью радиальной модели демонстрирует системную взаимосвязь между значениями глагола. Результаты подтверждают эффективность когнитивного моделирования в анализе многозначности.

Ключевые слова

полисемия, семантическое развитие, метафора, когнитивная семантика, теория прототипов, радиальная модель.

Kirish. Til tizimida ko'p ma'nolilik (polysemy) hodisasi leksik birliklarning semantik evolyutsiyasini aks ettiruvchi muhim lingvistik jarayonlardan biri hisoblanadi. So'z ma'nosining kengayishi yoki o'zgarishi tilning kommunikativ ehtiyojlari hamda inson tafakkurining konseptual xususiyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, fe'llar dinamik semantik tabiatga ega bo'lib, ular konkret harakatlardan abstrakt tushunchalarga o'tish jarayonida faol ishtirok etadi.

Mazkur maqolada yapon tilidagi "nobiru" fe'lining semantik rivojlanish jarayoni hamda uning ko'p ma'nolilik tizimi kognitiv-semantik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ushbu fe'lning prototip ma'nosini

aniqlash, uning semantik kengayish yo'nalishlarini tasniflash va ushbu jarayonning asosiy mexanizmlarini ochib berishdan iborat.

Nazariy asos. Semantik rivojlanish til birliklarining ma'nosida yuz beradigan tarixiy va funksional o'zgarishlar majmuini anglatadi. Ushbu jarayon kognitiv tilshunoslikda insonning konseptual tizimi bilan bog'liq holda izohlanadi. Ko'p ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi asosiy mexanizmlar quyidagilardan iborat:

- Metafora – bir konseptual sohani boshqa soha orqali tushunish;
- Metonimiya – yaqinlik va aloqadorlik asosida ma'no ko'chishi;
- Prototip nazariyasi – markaziy ma'nodan periferik ma'nolarning kelib chiqishi.

Kognitiv yondashuvga ko'ra, inson abstrakt tushunchalarni anglashda o'zining jismoniy va fazoviy tajribasiga tayanadi. Shu sababli ko'plab semantik kengayishlar "konkret → abstrakt" yo'nalishida yuzaga keladi.

"nobiru" fe'lining semantik tuzilmasi

1) Prototip ma'no: fizik cho'zilish. "nobiru" fe'lining markaziy ma'nosi – obyektning fizik jihatdan cho'zilishi yoki uzunlashishidir. Bu ma'no sezilarli, kuzatiladigan va empirik tajribaga asoslangan bo'lib, semantik tizimning asosini tashkil etadi. Mazkur ma'no boshqa barcha semantik variantlarning shakllanishi uchun konseptual asos vazifasini bajaradi.

Misol (1): [Se ga nobiru.]

Bo'yi cho'zilmoq.

Misol (2)" [Men ga nobiru.]

Xamir(lag'mon) cho'zilmoq.

Misol(1) va (2) da bo'yning vaqt o'tgan sari cho'zilishi va xamirni urib cho'zilishi kabi fizik jihatlarini kuzatish mumkin.

2) Vaqtga oid semantik kengayish. "nobiru" fe'lining vaqt sohasidagi qo'llanishi uning metaforik kengayishining muhim bosqichidir. Bu ma'noda vaqtning davomiyligi fazoviy uzunlik sifatida konseptuallashtiriladi. Ya'ni vaqtning ortishi yoki davom etishi "cho'zilish" obrazi orqali idrok qilinadi. Mazkur semantik kengayish kognitiv metaforaga asoslanadi va fizik cho'zilish ma'nosidan hosil bo'lgan ikkilamchi ma'no sifatida namoyon bo'ladi.

Misol (3): [Natsuyasumi ga nobiru.]

Yozgi ta'til cho'zilmoq.

Misol (4): [Kaigi no jikan ga nobiru.]

Majlis vaqti cho'zilmoq.

Misol (3) va (4) da ta'vil hamda majlis vaqtining davom etishi fizik uzunlikning ortishi kabi tasavvur qilinmoqda. Ya'ni vaqt abstrakt tushuncha bo'lsa ham, u fazoviy "cho'zilish" modeli orqali idrok etilmoqda.

3) Qobiliyat va rivojlanish semantikasi. "nobiru" fe'lining yana bir muhim semantik kengayishi insonning qobiliyati, salohiyati va rivojlanishini ifodalash bilan bog'liqdir. Bu ma'noda insonning ichki o'sishi va taraqqiyoti fazoviy kengayish yoki cho'zilish sifatida konseptuallashtiriladi. Ya'ni abstrakt rivojlanish jarayoni fizik jihatdan "uzayish" obrazi orqali idrok qilinadi. Mazkur semantik kengayish quyidagi kognitiv metaforaga asoslanadi:

Misol (5): [Nōryoku ga nobiru.]

Qobiliyat rivojlanmoq.

Misol (6): [Kodomo no sainō ga nobiru.]

Bolaning iste'dodi rivojlanmoq.

Misol (5) va (6) da qobiliyat hamda iste'dodning ortishi fizik jihatdan kengayish yoki cho'zilish kabi tasavvur qilinmoqda. Ya'ni insonning ichki salohiyati abstrakt hodisa bo'lsa ham, u fazoviy o'sish modeli orqali idrok etilmoqda.

4) Miqdoriy va natijaviy kengayish. "nobiru" fe'li iqtisodiy, statistik va natijaviy kontekstlarda ham keng qo'llanilib, miqdoriy o'sish va ortishni ifodalaydi. Bu ma'noda son, ko'rsatkich va natijalarning ortishi fizik kengayish yoki cho'zilish modeli orqali konseptuallashtiriladi. Ya'ni abstrakt miqdoriy tushunchalar konkret fazoviy tajriba asosida idrok qilinadi.

Mazkur semantik kengayish quyidagi kognitiv metaforaga asoslanadi:

Misol (7): [Uriage ga nobiru.]

Savdo hajmi oshmoq.

Misol (8): [Jinkō ga nobiru.]

Aholi soni oshmoq.

Misol (7) va (8) da savdo hajmi hamda aholi sonining ortishi fizik jihatdan kengayish yoki cho'zilish kabi tasavvur qilinmoqda. Ya'ni miqdoriy o'sish abstrakt hodisa bo'lsa ham, u fazoviy kengayish modeli orqali idrok etilmoqda.

Semantik rivojlanishning tizimliliği. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "nobiru" fe'lining barcha semantik variantlari yagona markaziy ma'no – "uzayish/kengayish" konsepti asosida shakllangan. Dastlab fizik cho'zilishni ifodalagan mazkur prototip ma'no keyinchalik vaqt, qobiliyat, rivojlanish hamda miqdoriy o'sish kabi abstrakt sohalarga kengaygan. Shu tariqa bir markaziy konseptdan turli ma'no yo'nalishlari hosil bo'lib, radial semantik struktura shakllanadi. Mazkur semantik tizim quyidagi konseptual asosga tayanadi:

MARKAZIY MA'NO – "UZAYISH/KENGAYISH"

Natijada:

Fizik cho'zilish → jismoniy uzunlik,

vaqtning cho'zilishi → davomiylikning ortishi,

qobiliyatning o'sishi → ichki rivojlanish,

miqdoriy ortish → statistik kengayish kabi ma'nolar bir-biri bilan konseptual jihatdan bog'lanadi.

Bu holat "nobiru" fe'lida kuzatiladigan ko'p ma'nolilik tasodifiy emasligini, balki tartibli va tizimli semantik rivojlanish asosida shakllanganini ko'rsatadi.

Xulosa. Yapon tilidagi "nobiru" fe'lining semantik taraqqiyoti konkret fizik ma'nodan abstrakt ma'nolarga bosqichma-bosqich kengayish jarayoni orqali yuzaga kelganini ko'rish mumkin. Dastlab jismlarning cho'zilishi yoki uzunlashishini bildirgan ushbu fe'l keyinchalik vaqtning davom etishi, inson salohiyatining rivojlanishi hamda miqdoriy o'sish kabi turli semantik sohalarda ham qo'llanila boshlagan.

Bu holat inson tafakkurida abstrakt tushunchalarning ko'pincha konkret fazoviy tajriba asosida anglanishini ko'rsatadi. Ya'ni "uzayish" obrazi turli konseptual sohalarga ko'chib, yangi ma'nolar hosil qilgan. Shu tariqa "nobiru" fe'li birgina markaziy konsept asosida ko'p qatlamli semantik tizimni shakllantiradi.

Mazkur tahlil yapon tilidagi ko'p ma'nolilik hodisasi kognitiv mexanizmlar bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, metaforik kengayish jarayoni til birliklarining ma'no rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi "nobiru" fe'li misolida yaqqol namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Croft, W., & Cruse, D. A. (2004). *Cognitive Linguistics*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Dirven, R., & Verspoor, M. (2004). *Cognitive Exploration of Language and Linguistics*. Amsterdam: John Benjamins.
3. Evans, V., & Green, M. (2006). *Cognitive Linguistics: An Introduction*. Edinburgh: Edinburgh University Press.
4. Geeraerts, D. (2010). *Theories of Lexical Semantics*. Oxford: Oxford University Press.
5. Koizumi, T. (1993). *Nihongo no Imi (Yapon tili semantikasi)*. Tōkyō: Iwanami Shoten.

6. **Lakoff, G., & Johnson, M. (1980).** *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
7. **Lakoff, G. (1987).** *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*. Chicago: University of Chicago Press.
8. **Langacker, R. W. (1987).** *Foundations of Cognitive Grammar. Volume 1: Theoretical Prerequisites*. Stanford: Stanford University Press.
9. **Langacker, R. W. (1991).** *Foundations of Cognitive Grammar. Volume 2: Descriptive Application*. Stanford: Stanford University Press.
10. **Morita, Y. (1989).** *Kiso Nihongo Jiten (Asosiy yapon tili lug'ati)*. Tōkyō: Kadokawa Shoten.
11. **Taylor, J. R. (2002).** *Cognitive Grammar*. Oxford: Oxford University Press.
12. **Tyler, A., & Evans, V. (2003).** *The Semantics of English Prepositions: Spatial Scenes, Embodied Meaning and Cognition*. Cambridge: Cambridge University Press.
13. **Matsumoto Yo (1997).** *Yapon tili fe'llarining ma'nosi va sintaktik qurilishi*. Tokio: Hituzi Syobo nashriyoti.
14. **Yamanashi Masaaki (1995).** *Kognitiv grammatika nazariyasi*. Tokio: Hituzi Syobo nashriyoti.